
MIB MA'LUMOTI



ALIMENTDAN VOZ KEChSA, QAYTA ARIZA BERA OLMAYDIMI?

Savol: Men alimentdan voz kechganman. Hozirgi kunda aliment undirsam bo'ladimi?

Javob: Siz bemaolol qayta murojaat qilishingiz mumkin. Oliy sud Plenumining 29.07.2016 yildagi 11-son "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 23-bandiga ko'ra sudlarning e'tibori, aliment undirish haqidagi ish bo'yicha da'vogarning da'vodan voz kechishi yoki taraflar kelishuv bitimi tuzishi munosabati bilan ish yuritish tugatilishiga, agar bu bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

Holat o'zgarganda, da'vogarning aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga qayta murojaat qilishi istisno etilmaydi.

Yuqoridagi qoidaga ko'ra Siz aliment undirish bo'yicha qayta murojaat qilishga haqlisiz.

MIB So'x tuman bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-01 18:42:47